



**DAVLAT BUDJET-SOLIQ SIYOSATIDA SOLIQ
IMTIYOZLARINING TUTGAN O'RNI**

Xudoyberdi O'lmasboyev

Abdulloh Toshmurodov

Kamol To'xtayev

TDIU MMT-95 guruhi talabalari

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada budjet-soliq siyosatining davlat budjet tizimida tutgan o'rni, soliq imtiyozlarini davlat budgetidagi ahamiyati va soliq imtiyozlarining biznes subyektlari faoliyati va davlat iqtisodiyotiga bo'lgan ta'siri o'r ganilgan va yetarlicha xulosalar qilindi.

Kalit so'zlar. Davlat budgeti, davlat budgeti daromadlari, budjet-soliq siyosati, fiskal siyosat, soliq to'lovchi yuridik shaxs, soliq to'lovchi jismoniy shaxs, soliqlar.

Jadal rivojlanayotgan dunyoda, har bir sohaning yuqori suratlarda odimlayotganini ko'ramiz, bu o'z navbatida yangi sohanining ochilishi yoki ko'payishi va shu sohada ishlovchi ishchi kuchining ko'payishiga dastak bo'immoqda. Bu siljishlar o'z navbatida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga juda katta tasir ko'rsatadi, ya'ni davlat budget tizimi bilan bog'liq asosiy muammolarni hal etishda muhim tirkak vazifasini bajaradi. Chunki bu sohadan olingan daromad, foydalanilgan mol-mulk, yer va boshqa resurslar uchun to'lanadigan soliqlar davlat budgetining salmoqli qismini tashkil qilishiga shubxa yo'q.

Davlat budgetining asosiy daromadi soliqlar hisobiga shakllanishi ham sir emas albatta. Soliqlarning davlat budgetiga to'liq tushishini ta'minlash, shuningdek, yashirin iqtisodiyotni oldini olish hamda tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratib soliq imtiyozlarini qo'llash davlat budget-soliq siyosatining asosini tashkil etadi.

Davlatning budget-soliq siyosati faqatgina davlat budgetini to'ldirish va undan xarajatlarni amalga oshirish bilangina cheklanib qolmay, davlatning uzoq muddatli strategiyalarini belgilashda ham muhim rol o'ynaydi. Bunda ma'lum bir soliq turidagi foiz stavkasining pasaytirish yoki ma'lum bir soliq turidan aynan sohalarga doir soliq imtiyozlarini joriy qilish orqali belgilangan sohadagi biznes subyektlarining ko'payishiga olib keladi. Ya'ni bu tipdagи biznesda raqobat muhit Shakllanishi, natijada bu sohadan keluvchi budget daromadlarining ortishi kuzatiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlarining o'zgarish dinamikasi,¹ trln. so'mda

Soliq turlari	2023-yil ijrosi	2024-yil (reja)	Foizda
Davlat budgeti daromadlari, jami	231,7	270,6	116,79
Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foizda	21,7	20,8	
Bevosita soliqlar	73,1	85,6	117,1
Foyda solig'i	40,8	44,3	108,58
Aylanmadan olinadigan soliq	2,4	2,9	120,83
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	29,9	38,5	128,76
Bilvosita soliqlar	83,3	111,6	133,97
Qo'shilgan qiymat solig'i	57,9	74	127,81
Aksiz solig'i	15,8	22,7	143,67
Bojxona boji	9,6	14,8	154,17
Resurs soliqlari	28,1	31,8	113,17
Mol-mulk solig'i	5,1	6,7	131,37
Yer solig'i	6,9	7,2	104,35
Yer qaridan foydalanganligi uchun soliq	15,3	16,5	107,84
Suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	0,8	1,3	162,5
Boshqa daromadlar	47,2	41,6	88,136

Yuqoridagi jadvalda biz 2023-yilda davlat budgetiga soliqlardan kelib tushgan daromadlari va 2024-yilda reja qilingan davlat budgeti daromadlarini tahlil qilamiz.

¹ Budgetnoma 2024-2026. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Toshkent – 2023, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 2023-yil ijrosi to'g'risida dastlabki ma'lumot-O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy telegram sahifasi asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Bunda bevosita soliqlar tarkibidagi eng yuqori ulushni egallagan foyda solig‘idan tushgan tushum 2023-yilda 40.8 trln. so‘mni tashkil qildi va bu ko‘rsatkich 2024-yilda 8.58% ga o‘sib 44.3 trln. so‘mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

2-jadval

Soliqlar va soliq imtiyozlarining 2022-2023-yillar kesimida davlat budjetida tutgan o‘rni,² trln. so‘m

Soliq turlari	2022-yil davlat budjeti daromadlari	2023-yil davlat budjeti daromadlari	2023-yil soliq imtiyozlari	Davlat budgeti daromadlari o‘rtasidagi farqi
Foya solig‘i	37,6	40,8	5	3,2
Aylanmadan olinadigan soliq	2,5	2,4	0,0782	-0,1
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24,3	29,9	1	5,6
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	52,2	57,9	13,1	5,7
Aksiz solig‘i	13,5	15,8	1,2	2,3
Mol-mulk solig‘i	4	5,1	1,4	1,1
Yer solig‘i	5,3	6,9	1,7	1,6
Yer qaridan foydalanganligi uchun soliq	13,9	15,3	0	1,4
Suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	0,7	0,8	0,0286	0,1
Jami	201,8	231,7	25,5	29,9

Bilvosita soliqlar tarkibidagi holatda eng yuqori ulush qo‘shilgan qiymat

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 2023-yil ijrosi to‘g‘risida dastlabki ma’lumot-O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy telegram sahifasi, asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

solig‘iga to‘gri kelib 2023-yilda 57.9 trln. so‘mni tashkil qilib bu ko‘rsatkich 2024-yilda 27.81% ga o‘sishi kuzatilib 74 trln. so‘mni tashkil qilinishi prognoz qilinmoqda.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rib turganimizdek 2023-yilda 130 696 ta korxonalar 25.5 trln. so‘m miqdorida soliq imtiyozlaridan foydalangan. Bu holatda eng ko‘p soliq imtiyozi qo`shilgan qiymat solig`i uchun qo‘llanilgan bo‘lib, uning hajmi umumiy imtiyoz miqdorining 50% idan ortig‘ini tashkil etgan. Berilgan imtiyozlar natijasida qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2023-yilda davlat budgetiga 2022-yilga nisbatan 5,7 trln. so‘m miqdorida ko‘proq soliq kelib tushgan. Foyda solig`i bo‘yicha qo‘llanilgan imtiyozlar hajmi 5 trln. so‘mni tashkil etib, bu umumiy imtiyoz summasing salkam 20% ini tashkil qiladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i va yer solig‘i uchun olingan imtiyozlar mos ravishda 1; 1,2; 1,4; 1,7 trln. so‘mni tashkil etib umumiy imtiyozlar orasida o‘rtacha 5-6% hajm egallaydi. 2022-yilda davlat budgeti daromadlari qismida 201,8 trln. so‘mni tashkil kildi lekin 2023-yilda 25.5 trln. so‘m soliq imtiyozlari qaytarilishiga qaramasdan davlat budgeti daromadlari miqdori shu yilda 231.7 trln. so‘m, 2022-yilga nisbatan 29.9 trln. so‘m ko‘proqni tashkil qildi. Bu natija shuni anglatadiki soliq sohasidagi imtiyozlarning qo‘llanilishi davlat budgeti daromadlarini kamaytirmasdan aksincha ko‘payishiga sababchi bo‘ldi. Bu imtiyozlarning qo‘llanilishi yurtimizda yangi tadbirkorlik subyektlarining ochilishiga sabab bo‘lmoqda, yaqqol misol sifatida 2024-yil 1-aprel xolatiga maxsus QQS to‘lovchilar soni 189 899 tani tashkil etib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7% ko‘p. Bu tashkil etilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliq to‘labgina qolmay yangi ish o‘rinlarini ochmoqda, bu esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ulushi yuqori sur’atda ko‘payishini bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda davlatning budget soliq siyosatida soliq imtiyozlarining roli yuqori ulushni egallashi, rivojlanayotgan davrda asosiy ma’no kasb etishini tahlil qildik. Soliq imtiyozlari qo‘llanilishi davlat budgetiga salbiy oqibatlarni emas aksincha ijobjiy holatlarni olib kelishini ko‘rib o‘tdik. Bu imtiyozlar faqatgina davlat budgetiga emas, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga ham

ko'plab ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Birgina soliq imtiyozlari orqali yangi ish o'rinalarining yaratilishi davlatning ijtimoiy sohani qo'llab quvvatlash blan bog'liq manfaatlariga to'la to'kis mos keladi. Umumiy qilib xulosa beradigan bo'lsak, "soliq imtiyozlarini qo'llash davlat budgetiga zarar" degan miflarni yo'q qilib, ularning qo'llanilishi davlat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishiga sabab bo'ishi oydinlashdi. Albatta, soliq imtiyozlarining belgilangan miqdorda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo 'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташабbusli бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқукий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўкув юртларапо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
13. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
14. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
15. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
16. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
17. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
18. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
19. O‘roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalg qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.
20. Dilmurod o‘g‘li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1 (2024): 19-23.

21. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N.
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKLARDA KAMBAG'ALLIK
MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024.
– T. 2. – №. 1. – C. 20-21.
22. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari
//Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 934-940.
23. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI
MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI
//ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. –
2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 178-183.
24. Soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi
rasmiy sayti.
25. Lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy
bazasi.